

ISHLAR CHUKASI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 12-oy 07-kuni qabul qilingan va tasdiqlangan

QO'LLIY QILINGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70111601 – O'zga tili guruhlarda o'zbek tili magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

Mazkur Malaka talablar... Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining...
Respublikani Milliy malaka va ixtisari malaka talablarini...
vazirligining boshqarmasi...
Lisensiyalar berish bo'yicha...

O'zbekiston Respublikasi sudodan tashqari...
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining...
malaka talablarini...

Toshkent – 2023

Y3P OYMTB
BuzArys № 301
12.07.2023

ISHLAB CHIQILGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil « 12 » 07 dagi 301- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligining tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi	4
1.2.1.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari ...	5
1.2.3.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari	5
2.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya	9
2.3.2.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	10
2.3.3.	<i>70111601</i> – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi	10
	Bibliografik ma‘lumotlar	11
	Kelishuv varag‘i	12

1. 70111601 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligining tavsifi

70111601 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70111601 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **70111601 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili magistratura mutaxassisligi** bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

– magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

– magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

– ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

– oliy ta‘lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70111601 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70111601 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70111601 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili – ta‘lim sohasidagi mutaxassislik bo‘lib, barcha turdagi ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish

birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarning majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70111601 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- xalq ta'limi tizimi, boshqarmalar, metodik birlashmalardagi pedagogik va metodik faoliyat;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ilmiy-pedagogik ta'lim muassasalari va tashkilotlari.

1.2.3. 70111601 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy tadqiqot;
- ilmiy-pedagogik;
- pedagogik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- turli xizmatlar ko'rsatish.

1.2.4. 70111601 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70111601 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risolalar tayyorlash va ularni tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografik ro'yxatlarni tuzish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda ularda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- ilmiy malakasini muntazam oshirib borish.

Ilmiy-pedagogik faoliyatda:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-pedagogik va o'quv-metodik faoliyat yuritish;
- kasbiy faoliyat sohasining ixtisosligiga mos yangi ilmiy natijalarni, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini muntazam o'rganish, o'z faoliyatida qo'llash;
- namunaviy metodikalar va o'zining ilmiy-pedagogik sohasi bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish;
- ilmiy-pedagogik hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, bibliografik ro'yxatlarni tuzish;
- ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik mavzularda ilmiy nashrlarga maqola va tezislar tayyorlash.

Pedagogik faoliyatda:

- umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalarida, mos yo'nalishda nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv jarayonini tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish;
- o'qitadigan fanlari bo'yicha zarur o'quv-metodik ta'minotni shakllantirish va tuzish;
- pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va metodlarni, pedagogik mahoratini muntazam takomillashtirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- jamoada o'quv-metodik, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish hamda boshqarish;
- nostandart vaziyatlarda tashkiliy-boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ushbu qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilish;
- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;
- pedagogik faoliyat sifatini monitoring qilish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'quv jarayonlarini rejalashtirish;
- ta'limiy vositalarning pedagogik-psixologik me'yor talablariga mosligini ta'minlashda, amaliyotga tatbiqi va nazorati jarayonlarida faol ishtirok etish;

– kasbiy faoliyat sohasida davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

Turli xizmatlar ko’rsatish:

- mutaxassislikka mos maslahatchilik xizmati;
- tadqiq qilingan mavzular bo’yicha aniq ma’lumotlarga ega bo’lish;
- pullik ta’lim xizmati ko’rsatish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo’yicha davlat grantlari va xo’jalik shartnomalari asosida tadqiqot ishlari hamda boshqa xizmatlarni ko’rsatish.

2. 70111601 – O’zga tilli guruhlarda o’zbek tili ta’lim mutaxassisligi bo’yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

– ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo’lishi, umummetodologik fanlar asosini, siyosiy, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo’lishi

– kasbiy faoliyatda o’zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana bilish, metodlarni tasniflash, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

– xorijiy tillardan birida ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi, shuningdek, akademik, ilmiy tadqiqot va umumkasbiy masalalarni yechish vositasi sifatida foydalanish;

– o’zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

– ilmiy faoliyati natijalari bo’yicha davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan, shuningdek, xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo’lish;

– ta’lim-tarbiya jarayonlarining me’yoriy-huquqiy asoslarini bilish, ularni tahlil etish, amalda qo’llay va baholay olish;

– intellektual, madaniy, ma’naviy, jismoniy va kasbiy o’z-o’zini rivojlantirish hamda takomillashtirish qobiliyatiga ega bo’lishi va bu qobiliyatni amalda qo’llay bilish;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o’z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- zamonaviy lingvodidaktika yo‘nalishlarida ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish; ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazish;
- ilmiy-pedagogik tadqiqot mohiyati, tadqiqot strategiyalari va ularni tanlash yo‘llari hamda usullari, muammoni aniqlash va yechish yo‘llari hamda usullari, statistik tahlil qilishning mohiyati, statistik tahlil dasturlari haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- ilmiy tadqiqot metodologiyasi, maxsus o‘qitish metodikasi asosida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqish va o‘tkazish, til ta’limini loyihalashtirish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- kasbiy faoliyatida ilmiy va metodik aloqalarni tashkil qila olish;
- mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o‘qitish uchun o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishlarida o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitish xususiyatlarini bilish, shuningdek, ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta’lim-tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olish; o‘quvchi-talabalarni o‘zbek tili sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltira bilish;
- til o‘qitishda milliy va xorijiy metodika yutuqlaridan foydalana olish; nazariyalarini va metodlarini tanqidiy tahlil qila olish, til ta’limi jarayoniga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillarning ta’sirini baholay olish va shu asosda samarali ta’limni rejalashtirish, o‘quvchi-talabalarning bilimini adekvat baholash ko‘nikmakalariga ega bo‘lish;
- lingvodidaktikaning nazariy-metodologik asoslari, manbalari, tildagi lingvopragmatik ma’lumotlar turlarini; metodikaning muammo va yechimlarini tahlil qilish; til va madaniyat muammolarini, nutqning milliy-madaniy xususiyatlarini farqlash;
- nutqning milliy-madaniy xususiyatlariga ko‘ra yosh jihatdan farqlanishi, tinglovchi va so‘zlovchining nutqdagi milliy-madaniy xususiyatlarini, nutq jarayonidagi lisoniy va nolisoniy omillar, ularning mushtarakligi va o‘ziga xos rollari mavjudligini amaliy bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy amaliyot va tajriba orttirish – bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Ilmiy amaliyot va tajriba orttirish oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili o'qituvchisi, tadqiqotchi-pedagog.

2.3.2. 70111601 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1410	47
Tanlov fanlar	390	13
Ilmiy faoliyat	1800	60
HAMMASI	3600	120

2.3.3. 70111601 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	1410	47	
1.01	ITM 1,2 10	Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi	300	10	1,2
1.02	O‘TMSO‘M 1 05	O‘zbek tilini maxsus sohalar bo‘yicha o‘qitish metodikasi	150	5	1
1.03	MNA 2 07	Muloqot nazariyasi va amaliyoti	210	7	2
1.04	MTYT 2 05	Metodik ta‘minot yaratish tamoyillari	150	5	2
1.05	TM 1 05	Til va madaniyat	150	5	1
1.06	TMTM 3 04	Tillararo muloqotda tarjima muammolari	120	4	3
1.07	AMIY 2 07	Adabiy matnlar bilan ishlashda innovatsion yondashuv	210	7	2
1.08	TTPY 3 04	Til ta‘limida pragmatik yondashuv	120	4	3
2.00		Tanlov fanlari	390	13	
2.00.		<i>Tanlov fanlari (3 ta fan)</i>	390	13	1,3
		Jami	1800	60	
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

Guruh T 55

UDK: 002:651.1/7
OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, umumiy kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va t-learning texnologiyalari, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, pedagogik jarayon, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, axborot-kommunikatsiya tizimlari, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Rektor Sh. Sirojiddinov

2023-yil « 12 » iyul

m.o'.



KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi**

Direktor Sh. Yakubov

2023-yil « 12 » 07

m.o'.

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi**

Direktor Sh. Sattorov

2023-yil « _____ » _____

m.o'.



**Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika
universiteti**

Rektor A. Qirg'izboyev

2023-yil « _____ » _____

m.o'.



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
70111601 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili magistratura mutaxassisligi
malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim
muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“*db*” *ijell* 2023-yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori Sh.Sattarov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori A.Qirg'izboyev bilan birgalikda ToshDO'TAUda ishlab chiqilgan quyidagi **70111601 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:**

70111601 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili magistratura mutaxassisligi
Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 - yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi “2022/2023-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-5157-son Qarori va 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” F-31-son Farmoyishlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va o'quv dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talabi va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti rektori

Sh.Sirojiddinov

Sh. Sattarov

A.Qirg'izboyev